

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XUDAYBERGENOVA ZAMIRA ISQAQOVNA

**IMITATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA IJODIY SALOHIYATNI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xudaybergenova Zamira Isqaqovna

Imitatsion texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf
o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish..... 3

Худайбергенова Замира Ысқақовна

Развитие творческого потенциала будущих учителей начальных классов
посредством имитационных технологий..... 29

Khudaibergenova Zamira Iskakovna

Enhancing the Creative Potential of Future Primary School Teachers through
Simulation Technologies..... 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XUDAYBERGENOVA ZAMIRA ISQAQOVNA

**IMITATION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA IJODIY SALOHIYATNI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped6969 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.vocedu.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Berdimuratova Alima Karlibayevna
falsafa fanlari doktori, professor

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "5" 12 kuni soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; ye-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (134 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «24» 11 da tarqatildi.
(2025-yil «24» 11 da 134 raqamli reyestr bayonnomasi).



J.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor

G.E. Karlibaeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

A.Q. Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zururati. Jahonda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonlari, innovatsion ta'lim sharoiti va ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan turli risklar ta'lim tizimiga ijodiy yondashishni talab etmoqda. Bu esa tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayot va bozor iqtisodiyoti sharoitida keng axborotlashgan makonga moslasha oladigan, yuzaga kelgan muammolarni tizimli va ijodiy hal eta oladigan yangi davr chaqiriqlariga javob bera oladigan bilimli va yuqori ijodiy salohiyatga ega mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni hayotga tayyorlashga va kasbiy yo'naltirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya federatsiyasi kabi rivojlangan davlatlarda talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan imitatsion ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirishga oid nostandart vaziyatlarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik yondashuv asosida kasbiy – ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonlarini modellashtirish, innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, kreativ ta'lim muhitini yaratish orqali talabalarning kasbiy-pedagogik va imitatsion texnologiyalar yordamida talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish va ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillar orasidagi korrelyatsiyalarini aniqlash dolzarb ilmiy-izlanish masalalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda oliy ta'limda pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'qituvchilar tayyorlashning sifati va samaradorligini oshirish, tanqidiy va kreativ fikrlashga ega ijodkor o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. “Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarni namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish”¹ oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning imitatsion modeli va imitatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tug'risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son; 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son

2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 141-son “Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tug‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari tomonidan ijod va ilmiy ijod masalalari (N.Azizxodjaeva), ijodiy faoliyat (O.Raximov, A.Nikbaev) ijodiy faollik (S.Jalilova), ijodkorlik qobiliyati (J.Mamanazarova), ijodiy va kreativ qobiliyatni rivojlantirish (G.Ibragimova, A.Sidikova, G.Yusupova), mustaqil ijodiy fikrlashning (E.G‘oziev, Z.Nishonova, Z.Sherimbetova) psixologik-pedagogik jihatlari tadqiq etilgan. Pedagogik jarayonlarni tashkil etishda vaziyatli yondashuvdan foyalanishning ayrim jihatlari D.Raxmanova, J.Otajonov, Sh.A.Allanazarovalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, mazkur ilmiy izlanishlarda o‘quvchilarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishda o‘yinli-didaktik imitatsiyalardan foydalanish yo‘llari yoritib berilgan. R.Mavlyanova va N.Raxmankulovalar noimitatsion metodlarni boshlang‘ich ta’limda joriy etish masalasini o‘rganishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan T.Blinova, Ye.Rudenko, M.Shustova, T.Shalyugina, F.Kirgueva, Ye.Nikolaeva, L.Anfimova, G.Altshuller va S.Rubinshteynlar ijodiy shaxsni rivojlantirish nazariyasi va ijodkorlikning psixologik-pedagogik jihatlarni tahlil qilgan. T.Barisheva, B.Sorokin ijod psixologiyasida ijodiy qobiliyat dominant xarakterga ega ekanligini asoslashgan. N.Martishina esa, ijodkorlikni innovatsion faoliyat bilan aloqadorligi, T.Shamova, T.Davidenkolar ta’limni boshqarishdagi ijodkorlik masalalarini tadqiq etishgan.

Xorijlik olimlardan Z.Freyd, K.Yung, E.Noymannlar ijodiy faoliyatning psixoanalitik va eksperimental jihatlarni aniqlashtirgan bo‘lsa, J.Kelli va A.Maslou singari olimlar ijodning gumanistik va psixologik-kognitiv nazariyalarini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Shuningdek, J.Gilford, E.Kanli, R.Begetto, G.Dou singari olimlar esa ijodkorlikning shaxs salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati va uni baholashning diagnostik vositalarini ishlab chiqishgan, R.Kretchfeld kognitiv yondashuvning shaxsni ijodiy fikrlashga o‘rgatishga doir imkoniyatlarini yoritib bergan, J.Renzulli iqtidorlilik konsepsiyasini ishlab chiqqan. R.Djoyner esa, hayotda liderlik va ijodiy salohiyatning harakatlantiruvchi kuchlari, omillarini aniqlashtirgan. A.Jozeff,

M.Moor singari olimlar ta'limda imitatsiyalash muammosining nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishgan.

Biroq imitatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayoni mazmuni, psixologik-pedagogik xususiyatlari, mazkur jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning imitatsiyaga asoslangan modeli va nazariy-pedagogik shart-sharoitlari maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Bu esa, imitatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Uzluksiz ta'lim tizimida III – Renessans davriga mos yoshlarni o'qitish va tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi imitatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasi va pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

imitatsion texnologiyalarning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini yoritib berish;

pedagogik va mutaxassislik fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy modelini ishlab chiqish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayoni tanlanib, tajriba-sinov ishlariga Nukus davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti va Buxoro davlat universitetining 320 nafar talabasi jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlar va o'quv-me'yoriy hujjatlarni o'rganish, analiz, sintez, taqqoslash, kuzatish, so'rovnoma, pedagogik eksperiment, matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasi va psixologik pedagogik xususiyatlari mazkur pedagogik fenomenning kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladigan ijodiy fikrlash, bilishga doir mustaqillik, ijodiy faollik va qiziquvchanlik darajasini ifoda etadigan shaxsning integrativ sifati bilan bog'liq aksiomatik nazariyasiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayoni rolli, ishbop, interfaol, treningli, kompyuterli o'yinli va tahliliy, guruhiy munozara, loyihalashtirish kabi o'yinga asoslanmagan imitatsion texnologiyalarning binar imkoniyatlarini hamkorlikka asoslanib kengaytirish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy modeli o'zaro bir-biriga bo'ysunadigan va o'zaro bir-birini taqozo etadigan uchta ierarxik komponentlarning (maqsadli, mazmunli, jarayonli) strategik va taktik maqsadlar bilan barqaror identivlikka ega bo'lishini bevosita hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik shart-sharoitlari pedagogik va mutaxassislik fanlarining mazmunini maqsadli tanlash, tuzish, shakl, metod va vositalarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro aloqador majmuaviy chora-tadbirlarni (holat, qoida, talablar) ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Mutaxassislikka kirish” nomli o'quv qo'llanmasi chop ettirilgan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun imitatsion topshiriqlarga asoslangan amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'limni tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, olib borilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi matematik-statistik metodlar yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “ijod”, “ijodkorlik”, “salohiyat”, “ijodiy salohiyat”, “bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy salohiyati” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatining ochib berilganligi, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatining tuzilmasi, pedagogik va psixologik hususiyatlari, mezonlari, darajalari va ko'rsatkichlarining, mazkur jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatadigan shaxsning ijodiy sifatlari va psixologik to'siqlar taksonomiyasining ishlab chiqilganligi, imitatsion texnologiyalarning binar imkoniyatlarining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati imitatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlashning didaktik parametrlarining aniqlanganligi, pedagogik va mutaxassislik fanlarini o'rganish jarayonida talabalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy modeli va pedagogik shart-sharoitlarining takomillashtirilganligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy

salohiyatni rivojlantirishning imitatsion texnologiyalari algoritmlarga asoslangan imitatsion topshiriqlarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Imitatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishninga doir ilmiy izlanishlar natijasida:

bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasi va psixologik pedagogik xususiyatlarini mazkur pedagogik fenomenning kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladigan ijodiy fikrlash, bilishga doir mustaqillik, ijodiy faollik va qiziquvchanlik darajasini ifoda etadigan shaxsning integrativ sifati bilan bog'liq aksiomatik nazariyasiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Mutaxassislikka kirish" nomli o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 6-sentyabrdagi 333-son buyrug'i, 333-401-raqamli guvohnoma). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning ona tili ta'limi orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonini rolli, ishbop, interfaol, treningli, kompyuterli o'yinli va tahliliy, guruhiy munozara, loyihalashtirish kabi o'yinga asoslanmagan imitatsion texnologiyalarning binar imkoniyatlarini hamkorlikka asoslanib kengaytirish hamda ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy modelini o'zaro bir-biriga bo'ysunadigan va o'zaro bir-birini taqozo etadigan uchta ierarxik komponentining strategik va taktik maqsadlar bilan barqaror identivlikka ega bo'lishini bevosita hisobga olish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan PZ-202004165 "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" (2021-2023-yy.) mavzusidagi amaliy loyahasini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 3-dekabrda 11-05-6954/04-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik vaziyatlarni imitatsion modellashtirish malakalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik shart-sharoitlarini pedagogik va mutaxassislik fanlarining mazmunini maqsadli tanlash, tuzish, shakl, metod va vositalarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro aloqador majmuaviy chora-tadbirlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun yaratilgan "Mutaxassislikka kirish" nomli o'quv qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 6-sentyabrdagi 333-son buyrug'i, 333-401-raqamli guvohnoma). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishga hamda ularning oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishga tayyorgarligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning asosiy hajmi 122 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi, ijtimoiy intellektning tuzilishi, komponentlari va asosiy rivojlantirish omillari yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Ta'lim to'g'risidagi Qonunining 45-moddasida pedagoglar “ijodiy faollik ko'rsatishi, ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish” kabi huquqlarga egaligi belgilab qo'yilgan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni metodist, moderator, ustoz (Mentor), novator, maktab maslahatchisi (School Councillor) sifatida samarali faoliyat yuritishga tayyorlashni shart qilib qo'yadi.

Tadqiqot doirasida “ijodiy salohiyat” atamasining mohiyatini to'liq ochib berish uchun dastlab “salohiyat” tushunchasining o'ziga to'xtalib o'tilgan. “Salohiyat” tushunshasi lotincha “potentia” so'zidan olingan bo'lib, “kuch”, “imkoniyat”, arabchadan tarjima qilinganda “qobiliyat” ma'nosini bildiradi. Mazkur tushunshaning ilmiy nuqtai nazardan qo'llanilishi Arastu falsafasiga borib taqaladi. Turmush-hayot tarzi “salohiyatga egalik” va “dolzarblik”ni taqozo etib, rivojlanish ularning biridan ikkinshisiga o'tib borishni o'zida aks ettiradi. Shuning ushuni salohiyat Arastu tomonidan dolzarblik va harakat muvofiqligiga imkon beradigan sifat, miqdor va o'rin substansiyasiga layoqatlilik sifatida talqin etilgan. Abu Nasr Forobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida “salohiyat” tushunshasini aql, iroda, ilm-fanga qiziqish, adolatparvarlik, mulohazakorlik,

uddaburonlik kabi sifatlarni jamlovchi komil insonga xos fazilat, deya e'tirof etgan.

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, faoliyat har doim imkoniyatdan kelib chiqadi va uning asosida amalga oshadi. Imkoniyat va reallik munosabati bilan bog'liq masalalar xorijlik olimlar tomonidan ham chuqur o'rganilgan bo'lib, "salohiyat" tushunchasi ilmiy atama sifatida nemis matematigi K.Gauss tomonidan fanga kiritilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, fanda salohiyat ko'pincha zahira so'ziga sinonim sifatida foydalaniladi va "iqtisodiy salohiyat", "kadrlar salohiyati", "intelektual salohiyat", "innovatsion salohiyat" kabi jumlalar keng qo'llaniladi. L.Abalkinaning "salohiyat – bu vaqt va makon bilan bog'liq resurslarning umumlashgan, to'plam va tavsifi" degan nuqtai nazari buni to'liq tasdiqlaydi. Demak, salohiyat yaxlitlikda ham inson, ham jamiyatning qo'yilgan maqsadlarga erishishga doir ichki imkoniyatidir, deyish mumkin.

Manbalarni tahlil qilish ko'plab psixologik-pedagogik tadqiqotlarda ijodkorlik masalasiga aniqlik kiritilganligi hamda faqat ularning ayrimlarida ijodiy va kreativ salohiyat atamalarining ajratib ko'rsatilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Ijodiy va kreativ salohiyat tushunchalarini alohida ajratib ko'rsatgan olimlar sifatida N.Vishnyakova, L.Dorfman, P.Kravchuk, J.Kropli, V.Petrovskiy, T.Byuzen, Yu.Varlakova, A.Aripdjanova, K.Nuralieva kabilarning nomlarini e'tirof etib o'tish mumkin.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida "shaxsning ijodiy salohiyati" tushunchasini talqin qilishda uning rivojlanishi va amalga oshirilishi insonni o'rab turgan atrof-muhitga moddiy va ma'naviy jihatdan nimadir yangini kiritish bilan bog'liqligiga ustuvor ahamiyat qaratilganligiga guvoh bo'lindi. Insonda shaxslilikning namoyon bo'lishi uning ijodiy salohiyatini tarkib toptirishga xizmat qilishini ham alohida e'tirof etib o'tish lozim.

"Men" mezonidagi o'zgarishlar dinamikasi ijodiy, kreativ ko'rsatkichlarning oshirib borishni ideal darajada rag'batlaydi. Masalan, N.Vishnyakova ijodiy salohiyatning sakkizta asosiy kreativ tarkibiy asoslarini ajratib ko'rsatadi: originallik; tasavvurning boyligi; intuitsiya; ijodiy fikrlash; hazil-mutoyiba; empatiya; qiziquvchanlik; faoliyatga ijodiy munosabat. Shu bilan birga, V.Molko ijodiy salohiyatning o'zgacha tarkibiy asoslarini ajratib ko'rsatgan: ma'naviy o'z-o'zini rivojlantirishga intilish; yangi bilimlarni yuqori sur'atlarda o'zlashtirishga qobiliyatlik; yuzaga kelgan muammolarni ziyraklik bilan baholash va yo'nalganlik; tasodifiylik, bevositalik; egiluvchanlik; originallik; divergent fikrlash; yangiliklarga ochiqlik.

Yuqorida keltirib o'tilgan belgilar nafaqat kreativlikka taalluqli, balki ijodiy salohiyatning faol tashkiliy asoslari ham bo'lib xizmat qiladi.

O'z navbatida J.Gilford va Ye.P.Torrenslar ijodiy salohiyatning muhim belgisi sifatida bir yoki shunga o'xshash muammoning ko'plab yechimlarini izlab topish bilan bog'liq divergent fikrlashga katta e'tibor qaratishgan. Fikrlashning mazkur turi nostandart savollarga yechim topishda xilma-xil rakurslardan turib o'ylash, mushohada yuritish qobiliyatini aniqlab beradi.

Adabiyotlar tahlili asosida ijodiy salohiyatga xos quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin: originallik, nostandartlilik, moddiy va ma'naviy sohalarga doir muammolarga ijodiy yechim topish. Shu bilan birga ijodiy salohiyatni rivojlantirishning eng muhim ko'rsatkichi sifatda bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikka munosabatni o'zgartirish alohida ahamiyat kasb etadi. Aksincha, o'z-o'zini past baholash hamda o'zining shaxsiy kuch va imkoniyatlarini to'g'ri tahlil qila olmaslik ijodiy salohiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi psixologik qiyinchilik sifatida qaraladi.

Adabiyotlarni o'rganish orqali tadqiqot doirasida tadqiqotchilarning "ijodiy salohiyat" atamasining mohiyatini aniqlashtirishga doir turli nuqtai nazarlari qiyosiy tahlil qilindi. Natijada, quyidagi tarzda mualliflik yondashuviga asoslangan ta'rif ishlab chiqildi: "Ijodiy salohiyat – kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladigan ijodiy fikrlash, bilishga doir mustaqillik, ijodiy faollik va qiziquvchanlik darajasini ifoda etadigan shaxsning integrativ sifatidir".


Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy salohiyati – bu yangi sharoitlarga muvofiq harakat usullarini maqbul o'zgartira olish, nihoyasida ijodiy o'z-o'zini namoyon etish va o'z-o'zini rivojlantirishga intiladigan shaxsning faoliyat natijalarini (faoliyatni amalga oshirishga doir subyektning yangicha yondashuvi, originalligi, noyobligi) aniqlab beradigan shaxsiy qobiliyatlari (ixtirochilik, tasavvurning boyligi, aqlning tanqidiyligi, istalgan yangilikka ochiqlik) tizimidir, degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasi va komponentlari aniqlashtirildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasini aniqlashtirishda motivatsion, kognitiv, jarayon bilan aloqador darajalarga asoslanildi (1-rasmga qarang).

Mazkur tuzilmaning motivatsion-qadriyatli komponenti pedagogik faoliyatning barcha turli-tuman – asosiydan (har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish) alohida sifat va unsurlarni rivojlantirishgacha bo'lgan maqsad va vazifalarini o'zida ifoda etadi. Ushbu komponent professor-o'qituvchi va talabaning o'zaro harakatining o'zaro muvofiqligi sharoitida amalga oshadi. Yanada aniq qilib aytganda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda motivatsion-qadriyatli komponentni rivojlantirish uchun talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatga motivatsiya, unga faol qiziqish, pedagogik ishga ijobiy shaxsiy munosabat va pedagogik tajribani to'plashga intilishni shakllantirish imkonini beradigan o'quv faoliyati usullari, muloqot shakllari orqali o'quv jarayonining emotsional-qadriyatli sohasini boyitish zarur.

Mantiqiy tuzilmaning subyektiv komponenti talabaga o'zini faoliyat subyekti sifatida anglashi, uni amalga oshirishga doir shaxsiy imkoniyatlari diagnostikasi, faoliyatni bajarish jarayonini ta'minlaydigan shaxslilik sifatlarini anglash, faol ishtirok etish, betakrorlik va o'ziga xoslikni taqdim etadigan individual bilish traektoriyasini yaratish kabilarni o'zida namoyon qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishga doir o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish mazkur jarayonni imitatsiyalash (modellashtirish)ga doir texnologik asoslarni nazariy jihatlarini ham chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'ituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasi

Obyektiv komponent faoliyat obyektini aniqlash, unga ijobiy munosabatda bo'lish, qiziquvchanlik va ehtiyojning tug'ilishi, uning o'ziga xoslilarini bilish, o'zining hayotiy faoliyatida foydalanish ko'nikmasi kabilarni ifoda etadi.

Texnologik komponent faoliyat vositalari va usullari bilan bog'liq bo'lib, ular orasidan talaba o'zi uchun qulay, tushunarli, maftunkorlarini tanlay olishi zarur. Talaba shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olib, ularning o'ziga xosliklarini o'rganadi hamda mualliflik texnologiyasin ishlab chiqib, uni amaliyotda qo'llaydi.

Refleksiv komponent o'zining ijodiy salohiyatini ongli baholay olishga imkon beradigan individning kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasini ko'rib chiqadi.

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'iya sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishga bag'ishlanganligi uchun yoshlik davrining o'ziga xosliklari ham o'rganildi.

I.Konning tadqiqotlari kattalik va o'smirlikda ijodiy faollikning namoyon bo'lish darajasi turlicha ekanligini ko'rsatadi. Ijodiy faollikning namoyon bo'lishi deganda yangi nuqtai nazarlarga egalik, biror-bir mutlaq yangini yaratish, shu bilan birga intizomlilik, o'z-o'zini nazorat qilish, ijobiy natijalarga erishish uchun o'z-o'zini tashkillay olish imkoniyati tushuniladi. Yoshlik davrida hayotiy maqsadlarni amalga oshirish, dunyoqarashga doir qat'iy ustanovkalar hosil bo'ladi hamda o'smirlikning so'ngida shakllanadi.

Shubhasiz, ijodiy jarayonda yosh davri qonuniyatlari muhim rol o'ynaydi, biroq bilim va hayotiy tajriba asosiy ahamiyat kasb etadi. Hayot davomida olingan katta hajmdagi bilimlar shaxsda u yoki bu vazifani hal etishga doir yondashuvni oson topish imkonini beradi. Murakkab savollarni hal etish uchun maxsus tor yo'nalishdagi bilimlar zarurdir.

Biroq ayrim tadqiqotlar (masalan, Yu.Kulyutkin va G.Suxobskayalarning) yuqoridagi mulohazaga qarama-qarshi fikrni ilgari surishadi. Ular bilimlar shaxsning ijodiy fikrlashdan mahrum qilib, ma'lum bir algoritm bo'yicha insonni dasturlashtirishi mumkin, deb hisoblashadi. Ya'ni, insonda bilimlar qancha kam bo'lsa, u shuncha ko'p original g'oyalarni taklif qilishi mumkin. Yu.Kulyutkin va G.Suxobskayalar tomonidan qo'lga kiritilgan fikrning egiluvchanligi va ta'lim olganlik darajasi orasidagi aloqadorlikka qaratilgan statistika 85 foiz tugallanmagan oliy ta'limga ega shaxslar eshiluvchan fikrlashini, bunday fikrlovchilarning atigi 18 foizini oliy ma'lumotlilar tashkil etishini ko'rsatgan.

Psixologik-pedagogik va ijtimoiy tadqiqotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, shaxsda ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish talabalik yillari uchun xosdir. Mazkur davrda yoshlar shaxsiy va ijtimoiy nuqtai nazardan o'z-o'zini qayta tashkillashtiradi, bu esa uning faoliyatini ijodiy deb atash imkonini beradi.

Tadqiqotlar tahlili asosida ijodiy faoliyat subyektlari sifatida talabalarning asosiy sifatleri va ijodiy salohiyatni rivojlantirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi psixologik to'siqlar taksonomiyasi aniqlashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ijodiy faoliyat subyektiga xos asosiy sifatlardan ko'ra, ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiridigan psixologik to'siqlar miqdor jihatdan ancha ustunlik qiladi. Ana shu sababli tadqiqot doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishga doir psixologik to'siqlarni kamaytirish vositasi sifatida imitatsion texnologiyalar tanlandi hamda dissertatsiyaning keyingi bobida mazkur masalaning tadqiqiga alohida e'tibor qaratildi.

Ijodiy faoliyat subyektiga xos asosiy sifatlar va psixologik to‘siqlar taksonomiyasi

Ijodiy faoliyat subyektiga xos asosiy sifatlar	Qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi psixologik to‘siqlar
pedagoglar va o‘quv dasturlariga tanqidiy munosabat; o‘rni kelgan vaqtda hazil-mutoyiba qila olish; o‘z-o‘zigi ishonch; ma’lum bir muammoga diqqatni jamlay olish istagi; hamma tomonidan javobi topilgan savoldan muammoni topa olish istagi.	xavflardan qochish; istalgan yo‘l bilan muvaffaqiyatga erishish; xulq-atvor streotiplari; tasavvurot, tadqiqotga salbiy baho; avtoritet fikrlarni qabul qilish; o‘zining shaxsiy kuchlariga ishonmaslik; tushkun kayfiyat (pessimizm); tanlangan kasbdan qoniqmaslik; xato qilishdan qo‘rqish; befarqlik; konservatizm.


Dissertatsiyaning **“Imitatsion texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishda imitatsion texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari, mazkur jarayonni amalga oshirishning nazariy modeli hamda imitatsion texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Boshlang‘ich ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining asosiy turi bo‘lib, bolalarning yuqori sinflarda akademik bilimlarni o‘zlashtirishi uchun fundament yaratib beradigan bosqich hisoblanadi. Shunday ekan, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko‘tarish talab etiladi. Pedagogik jarayonlarni oqilona boshqarish va qarorlarni qabul qilish ko‘nikma va malakalarga ega, pedagogik bilim bilan qurollangan, o‘z ustida ishlab kasbiy mahoratini oshirishga qodir, innovatsion ta’lim texnologiyalarini pedagogik faoliyatiga joriy eta oladigan pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga oshib bormoqda. Bunday ijodkor o‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik faoliyatni imitatsiyalashga doir metod va texnologiyalardan foydalanish o‘zining yaxshi samarasini beradi. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini hayotiy vaziyatlarni imitatsiyalashga o‘rgatish ularda moslashuvchan (Soft skills) va maxsus (Hard skills) ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodkorlikka xos kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

“Imitatsiya” tushunchasi lotin tilidan olingan bo‘lib, “imitatio”, ya’ni “nimagadir yoki kimgadir taqlid qilish asosida uni o‘zida qayta sinab ko‘rish”, “qo‘llab ko‘rish” va “qo‘llash” ma’nolarini bildiradi. Mazkur tushuncha siyosat,

musiqa, san'at, menejment, tibbiyot va psixologiya, ya'ni ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llanilishini ko'rish mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik jarayonlarda quyidagi jarayon va holatlarda imitatsiyalash ishlari namoyon bo'lishini ko'rish mumkin (2-rasmga qarang).



2-rasm. Imitatsiyalashning namoyon bo'lish jarayoni va holatlari

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda ta'limda imitatsion texnologiyalarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar paydo bo'ldi. Oliy ta'limda imitatsion texnologiyalarning qo'llanilish jarayonini tavsiflashga doir masalalar bilan L.K.Averchenko, A.B.Tolkachev, T.L.Blinova kabilar shug'ullanishgan.

L.K.Averchenkoning qayd etishicha, o'qitishning imitatsion texnologiyalari talabalarga kasbiy faoliyatni davom ettirish uchun zarur ko'nikmalarni egallash imkonini beradi hamda u ham ko'pchilik olimlar singari o'yinli (rolli va ishbop o'yinlar) va o'yinga asoslanmagan (individual topshiriqlar, muammoli vaziyatlarga yechim topish, vaziyatli topshiriqlarni bajarish va boshqalar) imitatsion texnologiyalarni ajratib ko'rsatadi.

A.B.Tolkachevning qayd etishicha, imitatsion texnologiyalar fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitish sifatini oshirish masalasini ko'ndalang qo'ygan mehnat bozorini qayta tashkillash doirasida yuzaga keldi. Uning fikricha, ta'limiy va kasbiy tayyorgarlik jarayoni kasbiy kompetensiya va ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beradigan

imitatsion texnologiyalarni faol qo'llash orqaligina maksimal darajada samarali amalga oshishi mumkin.

T.L.Blinova ham imitatsion texnologiyalarning kasbiy yo'nalganligiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, imitatsion texnologiyalar kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida quyidagi imkoniyatlarga egadir: talabalarning egallangan bilimlar va bo'lajak kasbiy faoliyat orasidagi o'zaro aloqadorlikni aniq tushunish imkoniyatini berishi; o'qitish jarayonini jadallashtirish; mobillikni shakllantirish.

Imitatsion texnologiyalar kasbiy-ijodiy faoliyatni modellashtirishni o'zida aks ettiradi. Pedagogik oliy ta'lim tizimida o'qitishning imitatsion texnologiyalarini qo'llashning bosh maqsadi zaruriy bilimlarni egallashda ta'lim jarayoni sub'ektlarining ehtiyojlarini qondirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan o'quv jarayonida imitatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) mashg'ulotlarni o'tkazishning ijodiy ish shakllari, axborotlarni uzatishning yangi usullarini qo'llash;
- 2) ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlarni rivojlantirish;
- 3) talabalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishga doir motivatsiyani oshirish;
- 4) ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish;
- 5) hamkorlikdagi ijodiy faoliyat tajribasini qaror toptirish.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, imitatsion texnologiyalar amaliyotda o'yinli va o'yinga asoslanmagan imitatsiyalar yordamida amalga oshiriladi.

O'yinli imitatsion texnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ishbop o'yinlar texnologiyasi – talabalarning mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish jarayonini rag'batlaydi, kasbiy vazifalarni hal etishda ijodiy fikrlash va kooperatsiyaga moyillikni oshiradi, qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonini tashkillashtira olish ko'nikmalarini mustahkamlaydi;

2) rolli o'yinlar texnologiyasi – talabalarda ijodiy munosabatlarni modellashtirishni o'zida aks ettiradi. Rolli o'yinlar talabalarning harakatlarini chegaralamaydi, aksincha, ularga xilma-xil vaziyatlarni modellashtirish, muammoga ijodiy yechim topishga rag'bat beradi;

3) interfaol o'qitish texnologiyasi – talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning mazkur shakli ijodiy vazifalarni hal etish uchun ularning birgalikdagi samarali faoliyati va jamoaviy ishni taqozo etadi;

4) trening – o'yinli o'qitishning asosiy texnologiyalaridan birini aks ettirib, o'zida aniq vaziyatlarni tahlil qilish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, ijodiy fikrlash va komandada ishlay olish ko'nikmalarini ifoda etadi;

5) kompyuterli o'yin texnologiyalari o'qitish jarayonida o'yinli elementlarni qo'llash maqsadida kompyuterlardan foydalanishni talab etadi. Kompyuterli o'yin texnologiyalari ta'lim oluvchilarda kasbiy kompetensiyalarni, ijodiy fikrlash ko'nikmalari va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘yinga asoslanmagan imitatsion texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

tahliliy texnologiya – axborotni ongli idrok etish; mavjud belgilari va munosabatlar, ma’lum va noma’lumliklarni aniqlash; tuzilmaga xos birliklarni ajratish va topish; aloqalarni anglash va tushuntirish;

guruhiy munozara – talabalarning mustaqil va ijodiy bilish faoliyatini rivojlantirish;

loyihalash texnologiyasi – talabalarning bilimlarni integratsiyalashga emas, ularni amaliyotda qo‘llash va yangilarini o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Loyihalash texnologiyasi forsait usullarining qo‘llanilishi orqali talabalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

2-jadvalda imitatsion texnologiyalarning ijodiy salohiyatni rivojlantirishga doir talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun imkoniyatlari taqdim etilgan.

2-jadval

Imitatsion texnologiyalarning binar imkoniyatlari

Talabalar uchun imkoniyatlari	Professor-o‘qituvchi uchun imkoniyatlari
bo‘lg‘usi kasbiy-ijodiy faoliyatga doir tasavvurlarni shakllantirish; kasbiy-ijodiy kompetençiyalarni shakllantirish; divergent fikrlashni rivojlantirish; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish; imitatsion modellar hisobiga o‘quv materillarini vizuallashtirish.	innovatsion-pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash; o‘quv jaraënini boshqarishni osonlashtirish; o‘qitish sifatini oshirish; talabalarni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb ëtish; imitatsion modellar bilan ishlash vaqtini maqbullashtirish.


Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayoni integral tavsifga ega bo‘lib, uning faoliyati va xulq-atvorining yo‘nalganligi, dinamikligi, samaradorligi va originalligini aniqlab beruvchi ijodiy shaxsga xos antropologik determinant xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik sifatlarni o‘zida aks ettiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonini modellashtirish o‘rganilayotgan hodisaning ichiga chuqurroq kirish imkoniyatini yaratadi va pedagogik tadqiqotlarda empirik va nazariylikni birlashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, model biror-bir hodisa, jarayonning yoki nimanidir tayyorlashning andozasini o‘zida aks ettiradi. Pedagogik va mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy modeli tuzilmasida o‘zaro bir-biriga bo‘ysunadigan va o‘zaro bir-birini taqozo etadigan uchta ierarxik komponent (maqsadli, mazmunli, jarayonli) o‘z aksini topgan (3-rasmga qarang).

Modelning maqsadli komponenti uning umumiy mohiyatini aks ettiradi, uni tuzishning nazariy-metodologik asoslariga asoslanadi. Uning asosiy ahamiyati kutiladigan natijaga erishish bo‘yicha harakatlar mantiqini belgilab berishidir.

Nazariy modelning maqsadli komponenti ma’lum bir ierarxik bo‘ysunadigan maqsadlarga asoslanadi: davlatning strategik maqsadi, oliy ta’lim, ish beruvchi tashkilotning taktik maqsadi, talabalar va professor-o‘qituvchilar maqsadi.



3-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning nazariy modeli

Modelning maqsadli komponent belgilangan mantiqqa (ijtimoiy buyurtma – oliy ta’lim tashkiloti – pedagog – talaba) muvofiq bo’lajak o’qituvchilarda ijodiy salohiyatni hamkorlikda (pedagog + talabalar) rivojlantirishni talab etadi.

Nazariy modelning mazmunli komponentida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish bo’yicha pedagogik va mutaxassislik fanlarining imkoniyatlari ochib berilgan.

“Umumiy pedagogika” moduli (fani) majburiy fanlar blokiga kirib, uning maqsadi insonparvar kasbiy fikrlashi, kasbiy-pedagogik madaniyatini boyitish, ta’lim-tarbiyaning zamonaviy texnologiyalarini amaliyotda qo’llay olishga o’rgatish; kasbiy faoliyat va unda ijodiy o’z-o’zini namoyon etish samaradorligini ta’minlaydigan shaxsiy sifat va xususiyatlarni rivojlantirish asosida sifatida talabalarning ilmiy-pedagogik bilimlar tizimini o’zlashtirishini ta’minlashdan iboratdir. Mazkur fanning vazifasi pedagogik faoliyatning ijodiy uslubi va kasbiy kompetentlikning yuqori darajasiga ega o’z-o’zini rivojlantiruvchi o’qituvchi shaxsini kasbiy shakllantirishga yo’naltirilgan.

“Mutaxassislikka kirish” moduli (fani) boshlang’ich ta’lim yo’nalishi uchun adaptiv kurs vazifasini bajarib, uning maqsadi talabalarni oliy ta’lim tizimiga tayyorlash, umumiy o’rta, o’rta maxsus ta’lim va oliy ta’limni uzviylikini ta’minlash, boshlang’ich ta’lim mutaxassislik fanlariga oid umumiy qonun, qoida, atama va tushunchalarni takrorlash, to’ldirish va qayta aloqani ta’minlashga o’rgatishdan iborat. Fanning vazifasi talabani oliy ta’lim tizimiga moslashtirish, mustaqil ta’limga o’rgatish va yo’naltirish, umumiy o’rta, o’rta maxsus ta’lim va oliy ta’limni uzviylikini ta’minlash, boshlang’ich ta’lim fanlaridagi boshlang’ich tushunchalarni umumlashtirishdan iborat.

“Mutaxassislikka kirish” moduli (fani) “Mutaxassislik fanlari – pedagogik fan”, “Mustaqil ta’lim olish texnologiyalari”, “Boshlang’ich sinflarda matematika kursi” submodullari bo’yicha ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarni o’z ichiga qamrab olgan. Mazkur fan bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy, metodik va amaliy komponentlarining birligini ta’minlaydigan tizimlashtirilgan va integrallashgan mazmunga egadir.

“Ona tili-o’qish savodxonligi va uni o’qitish metodikasi” moduli (fani) ham majburiy fan sanalib, boshlang’ich ta’lim yo’nalishlarida olti semestr o’qitiladi. Fanning o’qitishdan maqsad – talabalarni boshlang’ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi fanining mazmuni va vazifalari, o’qitish usullari, ta’limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo’yicha bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etish ko’nikmasini hosil qilishdan iborat. Fan doirasida o’rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, ona tili didaktikasi va metodikasi haqida ma’lumot berish hamda ona tilini o’quv predmeti sifatida qanday o’qitish kerakligiga oid kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga o’rgatish, ularda ona tili va o’qish savodxonligini o’qitish metodikasining nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko’nikmalarini shakllantirish.

Mazkur fanning vazifasi – talabalarda boshlang‘ich sinflar ona tili ta‘limi jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni, shuningdek, davlat ta‘lim standarti, o‘quv dasturi, maktab darsliklarining mazmuni va metodik tuzilishi bilan tanishtirish orqali boshlang‘ich ta‘limda o‘qitishning zamonaviy ilg‘or metod, usullari haqida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

“Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” moduli (fani) loyihalangan amaliy mashg‘ulot mavzulari talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, balki ijodiy pedagogik faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham imkon beradi.

Pedagogik bilimlarning sifat ko‘rsatkichi, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan ta‘limiy jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talabalarning o‘quv-tadqiqotchilik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati aks etadi. O‘quv-tadqiqotchilik faoliyatining asosiy maqsadi talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Uning asosiy funksiyasi – talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ilmiy tadqiqotchilik qonunlari bo‘yicha atrof-voqelikni bilish va qayta tashkillashga intilishni rivojlantirish.

Talabalarning o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati javoblari avvaldan ma‘lum bo‘lmagan ijodiy, tadqiqotchilik topshiriqlari bo‘yicha qarorlar qabul qilish bilan aloqador bo‘lib, talabalarni faol fikriy faoliyat yuritishga undaydi, ularda ijodkorlikka qiziqishni shakllantirish, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, mas‘uliyatlilik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabalarning ilmiy tadqiqot metodologiyasini egallashi, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish metodlari, usullari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, ilmiy va o‘quv ijodkorligi, mustaqillik va tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlar yig‘indisini o‘zida aks ettiradi. Uning maqsadi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy faoliyat usullarini o‘zlashtirishdan iborat.

Modelning jarayonli komponenti didaktik shart-sharoitlarni yaratib beruvchi ma‘lum bir tamoyillarni hisobga olishni taqozo etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan yetakchi tamoyillar quyidagilardan iborat: insonparvarlik, muammolilik, individualizatsiya, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, mustaqillik va o‘qitishning axborotlar bilan to‘yinganligi. Mazkur tamoyillarning mazmuni dissertatsiyada to‘liq o‘z aksini topgan.

Pedagogik va mutaxassislik fanlarini o‘rganish jarayonida pedagogik realiyalarni bilish sub’ektlarining ijodiy komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan nazariy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. Mazkur tadqiqot doirasida nazariy-pedagogik shart-sharoitlar deganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida pedagogik va mutaxassislik fanlarini mazmunini maqsadli tanlash, tuzish, shakl, metod va vositalarni amalga oshirish bo‘yicha o‘zaro aloqador majmuaviy chora-tadbirlar (holat, qoida, talablar) tushuniladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik shart-sharoitlari sifatida ijodiy ta'limiy muhitning o'qitish jarayonidagi dominantligini va o'qitishning variativligini ta'minlash, rivojlantiruvchi ta'lim, faoliyat subyekti sifatida talabani shakllanishi, refleksiyaning rivojlantirish, talabalarning ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonini maqsadli yo'naltirilgan tarzda maqsadli boshqarish belgilab olindi.

